

ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) TAMOYILLARINI DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA JORIY ETISH

Ismailov Allayor Rashidovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Innovatsion menejment” kafedrası PhD dotsent

ORCID: 0009-0000-6148-342X

Tel: 93-558-71-81

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini joriy etishning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilingan. Jahon amaliyotida davlat korxonalarida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv standartlarini integratsiya qilish orqali moliyaviy barqarorlik, jamoatchilik ishonchi va raqobatbardoshlik oshirilishi ko‘rsatilgan. O‘zbekistonda ham davlat ulushiga ega korxonalarda ESG standartlarini bosqichma-bosqich joriy qilish orqali investitsiya muhitini yaxshilash, korporativ hisobdorlikni kuchaytirish va strategik rivojlanishni ta‘minlash mumkinligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilinadi va milliy sharoitda ESG prinsiplarini tatbiq etish yo‘llari taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: ESG, ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas‘uliyat, korporativ boshqaruv, davlat ishtirokidagi korxonalar, samaradorlik, investitsiyaviy jozibadorlik, korporativ hisobdorlik, O‘zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract

This article analyzes the importance and effectiveness of implementing ESG (Environmental, Social, Governance) principles in state-owned enterprises. International practice shows that integrating environmental, social, and corporate governance standards in public enterprises enhances financial stability, public trust, and competitiveness. It is scientifically substantiated that the gradual introduction of ESG standards in Uzbekistan’s state-owned enterprises can improve the investment climate, strengthen corporate accountability, and ensure strategic development. The article also provides a comparative analysis of foreign experiences and proposes ways to implement ESG principles under national conditions.

Keywords: ESG, environmental sustainability, social responsibility, corporate governance, state-owned enterprises, efficiency, investment attractiveness, corporate accountability, Uzbekistan’s economy.

Аннотация

В данной статье проанализированы значение и эффективность внедрения принципов ESG (экологическое, социальное и корпоративное управление) в предприятиях с государственным участием. Мировая практика показывает, что интеграция экологических, социальных и корпоративных стандартов управления в государственных компаниях способствует повышению финансовой устойчивости, общественного доверия и конкурентоспособности. Научно обосновано, что поэтапное внедрение стандартов ESG в предприятиях с государственной долей в Узбекистане может улучшить инвестиционный климат, укрепить корпоративную подотчётность и обеспечить стратегическое развитие.

В статье также проводится сравнительный анализ зарубежного опыта и предлагаются пути реализации принципов ESG в национальных условиях.

Ключевые слова: ESG, экологическая устойчивость, социальная ответственность, корпоративное управление, предприятия с государственным участием, эффективность, инвестиционная привлекательность, корпоративная подотчётность, экономика Узбекистана.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida davlat ishtirokidagi korxonalar strategik tarmoqlarda muhim rol oʻynaydi. Ularning faoliyati nafaqat milliy iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash, balki ijtimoiy hamda ekologik ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish orqali davlatning ijtimoiy vazifalarini ham qoʻllab-quvvatlaydi. Shu sababli, bunday korxonalarda korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini va ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ESG prinsiplari davlat ishtirokidagi korxonalarda uch asosiy yoʻnalishda samarali taʼsir koʻrsatadi:

1. Ekologik barqarorlik (Environmental) – korxonalarining energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni nazorat qilish, “yashil” texnologiyalarni joriy etish orqali atrof-muhitga salbiy taʼsirni kamaytirish imkonini beradi.

2. Ijtimoiy masʼuliyat (Social) – korxonalar oʻz xodimlari, mijozlari va jamoatchilik oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini bajarish orqali jamiyatda ijobiy ijtimoiy muhitni yaratadi. Bu, ayniqsa, davlat korxonalarining aholiga barqaror xizmat koʻrsatishi va yangi ish oʻrinlarini yaratishida namoyon boʻladi.

3. Korporativ boshqaruv (Governance) – shaffof hisobdorlikni taʼminlash, kuzatuv kengashlarining mustaqilligini kuchaytirish, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish va innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish orqali kompaniyaning strategik samaradorligini oshiradi.

Xorijiy tajriba shuni koʻrsatadiki, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida ESG tamoyillarini integratsiya qilish orqali davlat korxonalarini samaradorligi hamda raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshgan. Masalan, Norvegiyada energetika kompaniyalari ESG standartlari asosida boshqariladi, Janubiy Koreyada top-menejment faoliyati natijaga yoʻnaltirilgan kontraktlar orqali baholanadi, Kanadada esa davlat kompaniyalari oʻz faoliyati haqidagi hisobotlarni jamoatchilikka ochiq taqdim etadi.

Oʻzbekistonda ham davlat ulushiga ega korxonalarda ESG prinsiplarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, korporativ hisobdorlikni kuchaytirish va ijtimoiy masʼuliyatni samarali amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Bu, oʻz navbatida, investitsiya muhitini yaxshilash, korporativ boshqaruvning shaffofligini oshirish va milliy iqtisodiyotda davlat ishtirokidagi korxonalarining strategik ahamiyatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG tamoyillarini joriy etishning ahamiyati, xorijiy tajriba va ularni milliy sharoitda tatbiq etish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ESG prinsiplarini joriy etish orqali

korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash va investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirish yo'llari taklif etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hariansah S. va hamkorlari ESG tamoyillarini amalga oshirishni tartibga soluvchi huquqiy asosni baholagan hamda kompaniyalarning ushbu tamoyillarga muvofiqqligini yaxshilash imkonini beruvchi normativ-huquqiy yangiliklarni tahlil qilgan [1].

Izmaylov M.K. ESG prinsiplarini neft-gaz kompaniyalari korporativ strategiyasiga integratsiya qilish masalasini o'rganib, yirik rus neft-gaz korxonalari misolida ushbu tamoyillarning strategik hujjatlarda aks etish xususiyatlarini tahlil qilgan [2].

Agafonov V.B. o'z tadqiqotida atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni huquqiy ta'minlashning zamonaviy muammolarini hamda ESG tamoyillarini amalga oshirishdagi ilg'or amaliyotlar, usullar va standartlarni joriy etish masalalarini o'rganib chiqqan [3].

Tkach A.M. fikricha, neft va gaz sektori eng ko'p resurs talab qiluvchi va ekologik jihatdan sezgir tarmoqlardan biri sifatida ESG tamoyillarini o'z faoliyatiga integratsiya qilish zaruratiga duch kelmoqda. U bu tamoyillarni atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishning muhim vositasi sifatida baholaydi [4].

Lisovskiy A.L. ESG amaliyotlarini hamda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun mas'ul maxsus bo'limlar tashkil etish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, xodimlar salohiyatini rivojlantirish va ularning ijtimoiy ta'minlanishiga e'tibor qaratish zarurligini asoslagan. Bu yondashuv ESG tamoyillarini samarali tatbiq etishning muhim omili sifatida ko'rsatilgan [5].

Kapranova L.D. va Polinuk O.A. ESG transformatsiyasi omillarini tahlil qilib, rivojlanish va transformatsiya jarayonlari tendensiyalarini aniqlagan, barqaror rivojlanishning ustuvor maqsadlariga erishish xususiyatlarini yoritgan. Ular davlat, biznes va jamiyatning samarali hamkorligini, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni kompleks o'rganish zarurligini ta'kidlagan [6].

Guzyr V.V.ning fikricha, zamonaviy tadbirkorlik rivojlanishining yangi bosqichi uning ekologik va ijtimoiy yo'naltirilganligining kuchayishi bilan bog'liq bo'lib, bu ESG trendida yaqqol ifodalanadi. Bu yondashuv kompaniyalarning xalqaro raqobatbardoshligini uzoq muddatli istiqbolda oshirishda muhim rol o'ynaydi [7].

Shishova J.A. o'z tadqiqotida ESG metodikasini qo'llash barqaror rivojlanish va korporativ ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini amalga oshirish orqali korporativ va davlat boshqaruvi samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon berishini ta'kidlaydi. U ESG metodikasini ekologik, ijtimoiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish nuqtayi nazaridan tahlil qilgan [8].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG prinsiplarini joriy etish masalasi qiyosiy, iqtisodiy-statistik va me'yoriy-huquqiy tahlil usullari orqali o'rganilgan. Norvegiya, Janubiy Koreya, Kanada hamda Yevropa mamlakatlarining

ilgʻor tajribalari Oʻzbekiston sharoitida qiyosiy tahlil qilinib, ularning moslashuv darajasi baholangan. Moliyaviy koʻrsatkichlar va ESG bilan bogʻliq elementlar tahlil qilinib, ekspert fikrlari hamda modellashtirish orqali samarali joriy etish imkoniyatlari aniqlangan. Ushbu yondashuv ESG tamoyillarini davlat korxonalarida integratsiya qilish va boshqaruv samaradorligini oshirish boʻyicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini bergan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oʻzbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalar milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida muhim rol oʻynaydi. Ularning faoliyati nafaqat iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash, balki energetika, transport, sanoat va moliya sohalarida strategik resurslarni boshqarish, yangi ish oʻrinlari yaratish va aholining ijtimoiy farovonligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu korxonalar mamlakatning tashqi savdo salohiyati va xalqaro investitsiya muhitiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun ularning zamonaviy, shaffof va masʼuliyatli korporativ boshqaruv tizimiga ega boʻlishi iqtisodiy barqarorlikning ajralmas omilidir.

Oʻzbekistondagi davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG tamoyillarini integratsiya qilish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ekologik yoʻnalishda resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish borasida chora-tadbirlar mavjud boʻlsa-da, ularning koʻlami hozircha cheklangan. Masalan, ayrim energetika va sanoat korxonalarida chiqindi gazlarni utilizatsiya qilish hamda qayta ishlash tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan, bu esa ekologik barqarorlikni taʼminlash imkoniyatlarini kamaytiradi.

Ijtimoiy yoʻnalishda ham ESG standartlarini toʻliq joriy etish zarur. Xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, mehnat xavfsizligini taʼminlash, mahalliy jamoalar bilan ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish va korporativ ijtimoiy masʼuliyatni kuchaytirish dolzarb vazifalardan biridir. Bu jarayonda davlat korxonalari nafaqat yirik ish beruvchi sifatida, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi muhim subyekt sifatida qaraladi.

Korporativ boshqaruv jihatidan esa shaffoflik va mustaqillik muammolari hal etilishni talab qiladi. Kuzatuv kengashlari hamda top-menejmentning qaror qabul qilishdagi mustaqilligini oshirish, korporativ hisobdorlik standartlariga muvofiq axborotni oshkora eʼlon qilish, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Bu nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki davlat korxonalarining moliyaviy barqarorligi va investitsiyaviy jozibadorligiga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, ESG tamoyillarini samarali joriy etish orqali davlat korxonalari moliyaviy samaradorlikni oshirish bilan birga, strategik maqsadlar va ijtimoiy vazifalarni ham muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin. Mustaqil kuzatuv kengashlari faoliyati, shaffof hisobdorlik tizimi, ekologik va ijtimoiy masʼuliyatning kuchaytirilishi kompaniyalarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini va investorlar ishonchini sezilarli darajada oshiradi.

Shu nuqtayi nazardan, Oʻzbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG tamoyillarini kompleks tarzda va milliy sharoitga mos holda joriy etish milliy

iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, strategik tarmoqlarni samarali boshqarish hamda xalqaro investitsion jozibadorlikni oshirish uchun zarur strategik yo‘nalish hisoblanadi. Xorijiy tajriba tahlili ham shuni tasdiqlaydiki, ESG prinsiplarini integratsiya qilish davlat korxonalarini samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va ularni global iqtisodiy tizimga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval.

Xorijiy tajribalar va ularning O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari¹

Xorijiy tajriba	O‘zbekistonda joriy etish yo‘llari	Kutilgan natija
Norvegiya – ESG standartlari asosida energetika kompaniyalari	Barqaror rivojlanish va “yashil iqtisodiyot” strategiyasini yirik davlat korxonalarida joriy qilish	Ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik oshishi
Janubiy Koreya – natijaga yo‘naltirilgan kontrakt tizimi	Top-menejment ish haqini ESG ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash	Ijro etuvchi organing mas‘uliyati va samaradorligi oshishi
Kanada – jamoatchilikka hisobdorlik	Davlat kompaniyalari moliyaviy va ijtimoiy hisobotlarni oshkorali ravishda taqdim qilish	Korporativ shaffoflik va jamoat ishonchi kuchayishi
Yevropa va Yaponiya – uzoq muddatli strategik rejalashtirish	Davlat ulushi mavjud kompaniyalarda strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish	Uzoq muddatli barqarorlik va innovatsion rivojlanish

Xorijiy tajribalar O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG prinsiplarini joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Norvegiya tajribasi barqaror rivojlanish va “yashil iqtisodiyot” strategiyasini yirik energetika korxonalarida integratsiya qilish orqali ekologik hamda iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlaydi. Janubiy Koreya tajribasida esa top-menejmentning ish haqi ESG ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, bu ijro etuvchi organlarning mas‘uliyatini va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Kanada tajribasi moliyaviy va ijtimoiy hisobotlarni oshkora e‘lon qilish orqali korporativ shaffoflikni kuchaytiradi hamda jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi. Yevropa va Yaponiya tajribalari uzoq muddatli strategik rejalashtirishga asoslanib, innovatsion rivojlanish va barqarorlikni ta‘minlaydi. O‘zbekistonda ushbu mexanizmlarni milliy iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy sharoitlarga moslashtirish ESG prinsiplari samarali joriy etilishiga xizmat qiladi. Bu esa davlat korxonalarining moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi va jamoatchilik ishonchini oshirib, ularning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yanada mustahkamlaydi (2-jadval).

¹ Muallif ishlanmasi

2-jadval.
O‘zbekistonda ESG prinsiplarini joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari¹

Yo‘nalish	Joriy etish mexanizmi	Kutilgan natija
Korporativ shaffoflik	IFRS standartlariga bosqichma-bosqich o‘tish	Investorlar ishonchi va korporativ shaffoflik oshishi
Innovatsion boshqaruv usullari	KPI va raqamli monitoring tizimini joriy qilish	Samaradorlik va hisobdorlik oshishi
Aksiyadorlar huquqlarini kuchaytirish	Elektron ovoz berish va aksiyadorlar forumini yo‘lga qo‘yish	Inklyuziv boshqaruv va aksiyadorlar ishonchi ortishi
Xalqaro korporativ madaniyat	Kuzatuv kengashi a‘zolari uchun xorijiy tajriba almashinuvi dasturlari	Zamonaviy bilim va tajriba joriy etilishi

O‘zbekistonda ESG prinsiplarini joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari korporativ shaffoflik, innovatsion boshqaruv usullari, aksiyadorlar huquqlarini kuchaytirish va xalqaro korporativ madaniyatni qamrab oladi. IFRS standartlariga bosqichma-bosqich o‘tish orqali shaffoflik va investor ishonchi oshadi. KPI va raqamli monitoring tizimlari samaradorlik va hisobdorlikni kuchaytiradi. Elektron ovoz berish va aksiyadorlar forumlari inklyuziv boshqaruvni ta’minlaydi. Kuzatuv kengashi a‘zolari uchun xorijiy tajriba almashinuvi dasturlari esa zamonaviy bilim va tajribani joriy etish imkonini beradi (3-jadval).

3-jadval.
ESG joriy etish orqali moliyaviy va ijtimoiy samaradorlik²

ESG yo‘nalishi	O‘zbekistonda tatbiq qilish choralari	Kutilgan samaradorlik
Environmental (Ekologik)	“Yashil iqtisodiyot” va resurs samaradorligi dasturlarini joriy qilish	Energiya tejamkorligi, ekologik barqarorlik
Social (Ijtimoiy)	Xodimlar va jamoatchilik uchun ijtimoiy loyihalar, axborot ochiqligi	Jamoatchilik ishonchi va ijtimoiy mas’uliyat kuchayishi
Governance (Boshqaruv)	Mustaqil direktorlar, KPI tizimi, shaffof hisobotlar	Korporativ samaradorlik, mas’uliyat va investor ishonchi oshishi

ESG prinsiplarini O‘zbekistonda tatbiq qilish moliyaviy va ijtimoiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Environmental yo‘nalishda “yashil iqtisodiyot” va resurs samaradorligi dasturlari energiya tejamkorligi va ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Social yo‘nalishda xodimlar va jamoatchilik uchun ijtimoiy loyihalar hamda axborot ochiqligi jamoatchilik ishonchi va ijtimoiy mas’uliyatni

¹ Muallif ishlanmasi

²

kuchaytiradi. Governance yoʻnalishda mustaqil direktorlar, KPI tizimi va shaffof hisobotlar korporativ samaradorlik, rahbariyatning masʼuliyati va investor ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Jadvallar tahlili koʻrsatdiki, ESG prinsiplarini davlat ishtirokidagi korxonalarda joriy etish orqali:

1. Moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlik oshiriladi;
2. Korporativ hisobdorlik va shaffoflik taʼminlanadi;
3. Ekologik va ijtimoiy masʼuliyat kuchayadi;

4. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro standartlarga moslash imkoni yaratiladi.

Oʻzbekistonda ESG tamoyillarini tatbiq qilishda xorijiy tajribalardan oʻz vaqtida va maqsadga muvofiq foydalanish korxonalar samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Davlat ishtirokidagi korxonalar misolida ESG indeksi hisoblashni bosqichma-bosqich tarzda koʻrib chiqamiz.

Korxonalar nomi: “Trikotaj Teks” AJ

Davlat ulushi: 51%

Umumiy byudjet (B): 1,000,000,000 soʻm

ESG tarmoqlari va ogʻirliklari:

ESG tarmogʻi	Ogʻirlik (w)
E (ekologik)	0.4
S (ijtimoiy)	0.3
G (boshqaruv)	0.3

Xarajatlarda (investitsiya, soʻm):

ESG tarmogʻi	Xarajat (x)
E (ekologik)	400,000,000
S (ijtimoiy)	300,000,000
G (boshqaruv)	300,000,000

Samaradorlik koeffitsiyentlari (k):

ESG tarmogʻi	k
E (ekologik)	0.005
S (ijtimoiy)	0.004
G (boshqaruv)	0.003

Har bir ESG tarmogʻi samaradorligi xarajatlarga bogʻliq ravishda eksponensial funksiya orqali hisoblanadi: Formula:

$$Indeks = 1 - e^{-k*x}$$

x – tarmoqqa sarflanadigan mablagʻ

k – xarajatning samaradorlikka taʼsir koeffitsiyenti

Funksiya xususiyati: boshlang'ich sarflanishda samara tez ortib, keyin yuqori samaradorlikka yetishi bilan sekinlashadi.

Bu formula investitsiya oshishi bilan ESG samaradorligi ortishini, ammo 1 (100%) ga yaqinlashishini ko'rsatadi.

ESG tarmoqlari bo'yicha hisoblash.

1. Ekologik samaradorlik (E)

$$E = 1 - e^{-0.005 \cdot 400,000,000} = 1 - e^{-2,000,000}$$

$$e^{-2,000,000} \approx 0 \Rightarrow E \approx 1$$

2. Ijtimoiy samaradorlik (S)

$$S = 1 - e^{-0.004 \cdot 300,000,000} = 1 - e^{-1,200,000}$$

$$e^{-1,200,000} \approx 0 \Rightarrow S = 1$$

3. Boshqaruv samaradorligi (G)

$$G = 1 - e^{-0.003 \cdot 300,000,000} = 1 - e^{-900,000}$$

ESG umumiy indeksi.

$$Z = W_E * E + W_S * S + W_G * G$$

$$Z = 0.4 * 1 + 0.3 * 1 + 0.3 * 1 = 1$$

W_E, W_S, W_G – har bir ESG tarmog'i ahamiyati

Z – umumiy ESG samaradorligi, 0–1 oralig'ida

Bu davlat va investorlar uchun korxonaga ESG strategiyasining umumiy samaradorligini ko'rsatadi. Demak, umumiy ESG indeksi 1 (100%) ni tashkil etadi.

Davlat ulushi bo'yicha ESG hissasi.

$$\text{Davlat ESG} = \text{Davlat ulushi} * Z = 0.51 * 1 = 0.51$$

Ya'ni davlatning ESG samaradorligi hissasi **51%** ni tashkil qiladi.

Hisob natijalari misol asosida:

ESG tarmog'i	Samaradorlik (indeks)
E (ekologik)	1.0
S (ijtimoiy)	1.0
G (boshqaruv)	1.0
Umumiy ESG Z	1.0
Davlat ulushi hissasi	0.51

Demak, mazkur byudjet taqsimoti va samaradorlik koeffitsiyentlari sharoitida korxonalar umumiy ESG indeksi 100%, davlat ulushi hissasi esa 51% ni tashkil etadi.

Modelning samaradorligi bir qator jihatlarda namoyon bo'ladi. Avvalo, u qay tarmoq past samaradorlikka ega ekanligini aniqlaydi va shunga muvofiq e'tibor qaratish imkonini beradi. Shuningdek, model orqali optimal byudjet taqsimlash imkoniyati yaratiladi: qay tarmoqqa qo'shimcha investitsiya kiritilishi ESG samaradorligini oshirishini ko'rsatadi. Umumiy ESG samaradorligini prognoz qilish imkoni ham mavjud bo'lib, turli ssenariylar asosida korxonaning ESG natijasi baholanishi mumkin. Bundan tashqari, davlat ulushi hisobga olinganda, model davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG tajribasini aniq ko'rsatish va baholash vositasi sifatida qo'llaniladi.

Misolda umumiy byudjet 1 milliard so'm tarkibida taqsimlanib, ekologik tarmoq (E) ga 400 million so'm, ijtimoiy tarmoq (S) ga 300 million so'm va boshqaruv tarmog'i (G) ga 300 million so'm ajratildi. Har bir tarmoqning samaradorligi eksponensial funksiya asosida hisoblandi va natijada ekologik samaradorlik $E \approx 1$, ijtimoiy samaradorlik $S \approx 1$, boshqaruv samaradorligi $G \approx 1$ ko'rsatkichlariga erishildi. Umumiy ESG indeksi $Z = 1$ (100%) ni tashkil qildi. Davlatning 51% ulushi hisobga olingan holda, davlatning ESG hissasi 0,51 (51%) ni tashkil etdi.

Shu tarzda, davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG prinsiplari byudjet va samaradorlik koeffitsiyentlari asosida hisoblanishi mumkin va bu model strategik qarorlar qabul qilishda samarali vosita sifatida qo'llanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG prinsiplarini joriy etish korxonaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Matematik model orqali ESG indeksi hisoblanishi korxonaning qay tarmog'i past samaradorlikka ega ekanligini aniqlash va byudjet taqsimotini optimallashtirish imkonini beradi. Shuningdek, model turli ssenariylar asosida ESG samaradorligini prognoz qilish, byudjetni samarali taqsimlash va davlat ulushi hissasini hisoblash imkonini ta'minlaydi. Amaliy hisoblar va misollar shuni ko'rsatdiki, davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG samaradorligini baholash va monitoring qilish orqali strategik qarorlar qabul qilish samaradorligi oshirilishi mumkin.

Takliflar:

1. Davlat ishtirokidagi korxonalarda ESG prinsiplarini joriy etishda turli tarmoqlarga byudjet taqsimotini optimallashtirish tavsiya etiladi.

2. ESG samaradorligini davriy monitoring qilish va matematik model orqali prognoz qilish tizimi joriy etilishi lozim.

3. Davlat investitsiyalari asosan past samaradorlikka ega tarmoqlarga qaratilsa, umumiy ESG samaradorligi oshishi mumkin.

4. ESG prinsiplari raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan monitoring orqali qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

5. Davlat va investorlar uchun ESG indeksi strategik qarorlar qabul qilishda asosiy ko'rsatkich sifatida qo'llanilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hariansah S. et al. Implementation of ESG (Environmental, Social, and Governance) Principles in Mining Business in Bangka Belitung: normative review of corporate compliance //Proceedings of Annual Conference on Scientific Writing. – 2025. – Т. 2.
2. Измайлов М. К. Интеграция принципов ESG в корпоративную стратегию российских нефтегазовых компаний //Вестник Удмуртского университета. Серия «Экономика и право». – 2024. – Т. 34. – №. 1. – С. 22-27.
3. Агафонов В. Б. Правовое обеспечение экологической безопасности и рационального природопользования на основе ESG-принципов //Вестник Университета имени ОЕ Кутафина. – 2022. – №. 5 (93). – С. 46-58.
4. Ткач, А. М. (2025). Особенности применения ESG в нефтегазовом секторе. Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии, (3), 292-296.
5. Лисовский, А. Л. (2021). Переход к устойчивому развитию: эмпирический анализ факторов, мотивирующих промышленные компании к внедрению ESG-практик. Стратегические решения и риск-менеджмент, 12(3), 262-272.
6. Капранова Л. Д., Полищук О. А. ESG-трансформация как парадигма устойчивого развития экономики России //Вестник евразийской науки. – 2023. – Т. 15. – №. 3.
7. Гузырь В. В. Инновационная ESG-трансформация фирм как глобальный тренд устойчивого развития //Экономика и управление инновациями. – 2022. – №. 1. – С. 33-43.
8. Шишова Ж. А. Возрастание роли социального фактора в рамках применения концепции ESG в кризисных условиях //Государственная служба. – 2022. – Т. 24. – №. 4 (138). – С. 47-52.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Ingliz tili muharriri:

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Rus tili muharriri:

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Musahhah:

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**